
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Nazarova N.B.	The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels	319
Karimova S.S.	Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts	325
Radjabova G.G.	Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation	331
Adinaev O.J.	Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names	339
Muxitdinova X.S.	Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language	349
Amanov V.B.	Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek	358
PEDAGOGY		**378**
Kambarova D.I.	The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment	379
Allayarov T.Ya.	Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method	389
Silanteva E.F.	Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching	396
Omonova E.B., Musoyeva A.B.	Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools	411
Paluanova Kh.D.	The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education	419
Adamboyeva N.Q.	Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence	427
Alimardonov L.A.	Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people	435
Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.	Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian	443
Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.	Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions	450
Pulatova F.U.	Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education	456
Sulaymonova M.A.	AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy	464
Khodjieva Z.M.	Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions	489
Musayeva F.M.	The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students	498

Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people

Alimardonov Laziz Alimardonovich
alimardonovlaziz001@gmail.com
Senior Lecturer,
Eurasian Multidisciplinary University

Annotation *This article scientifically examines the theoretical foundations and conceptual model of ensuring youth information security in the era of globalization and digital information. It reveals the role of spiritual technologies in preventing alien ideas, destructive information attacks, and manipulative technologies that negatively affect the consciousness of the younger generation. The study proposes practical mechanisms aimed at strengthening the ideological immunity of youth, enhancing national identity, and ensuring information-psychological safety. Furthermore, a conceptual model for integrating spiritual technologies into the educational process has been developed, along with scientific and methodological recommendations to enhance its effectiveness. This research develops the theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people. The article scientifically substantiates the philosophical and methodological essence of the concept of «spiritual technologies», their place and importance in the system of information security. During the study, theoretical and principled foundations for forming spiritual immunity among young people, creating mechanisms of spiritual protection against information threats, and developing information culture based on national values were established. As a result, a multi-stage conceptual model of spiritual technologies aimed at ensuring the information security of young people was proposed, which envisages the integrated activity of family, educational institutions, the state, and societal institutions.*

Keywords *Spiritual technologies, information security, youth, conceptual model, theoretical foundations, spiritual security, spiritual immunity, information threats, national values, information culture, spiritual education, philosophical-methodological approach, spiritual algorithms, virtual dialogue, educational struggle, information-psychological security, spiritual perfection*

Yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modeli

Alimardonov Laziz Alimardonovich
alimardonovlaziz001@gmail.com
Katta o‘qituvchi,
Eurasian Multidisciplinary University katta o‘qituvchisi

Annotatsiya *Mazkur maqolada globallashuv va raqamli axborot asrida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy asoslari hamda konseptual modeli ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Bugungi kunda yosh avlod oniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yot g‘oyalar, destruktiv axborot xurujlari va manipulyatsiya texnologiyalarining oldini olishda ma’naviy texnologiyalarning o‘rni ochib berilgan. Tadqiqotda*

yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirish hamda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy mexanizmlar taklif qilingan. Shuningdek, ma'naviy texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar berilgan. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modeli ishlab chiqilgan. Maqolada ma'naviy texnologiyalar tushunchasining falsafiy-metodologik mohiyati, ularning axborot xavfsizligi tizimidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asoslangan. Tadqiqot davomida yoshlarda ma'naviy immunitet shakllantirish, axborot tahdidlariga qarshi ma'naviy himoya mexanizmlarini yaratish va milliy qadriyatlar asosida axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-printsiplari belgilab berilgan. Natijada, yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ma'naviy texnologiyalarning ko'p bosqichli konseptual modeli taklif etilgan bo'lib, ushbu model oila, ta'lim muassasalari, davlat va jamiyat institutlarining integratsiyalashgan faoliyatini nazarda tutadi.

Kalit so'zlar *Ma'naviy texnologiyalar, axborot xavfsizligi, yoshlar, konseptual model, nazariy asoslar, ma'naviy xavfsizlik, ma'naviy immunitet, axborot tahdidlari, milliy qadriyatlar, axborot madaniyati, ma'naviy tarbiya, falsafiy-metodologik yondashuv, ma'naviyatli algoritmlar, virtual dialog, ma'rifiy kurash, axborot-psixologik xavfsizlik, ma'naviy barkamollik*

Теоретические основы и концептуальная модель духовных технологий в обеспечении информационной безопасности молодёжи

Алимардонов Лазиз Алимардонович,
alimardonovlaziz001@gmail.com
Старший преподаватель,
Евразийский многопрофильный университета

Аннотация *В данной статье с научной точки зрения исследованы теоретические основы и концептуальная модель обеспечения информационной безопасности молодежи в эпоху глобализации и цифрового информационного пространства. Раскрыта роль духовных технологий в предотвращении чуждых идей, деструктивных информационных атак и манипулятивных технологий, оказывающих негативное влияние на сознание подрастающего поколения. В исследовании предложены практические механизмы, направленные на укрепление идеологического иммунитета молодежи, повышение чувства национального самосознания, а также обеспечение ее информационно-психологической безопасности. Кроме того, разработана концептуальная модель интеграции духовных технологий в учебно-воспитательный процесс и даны научно-методические рекомендации по повышению ее эффективности. Разработаны теоретические основы и концептуальная модель духовных технологий в обеспечении информационной безопасности молодёжи. В статье научно обоснованы философско-методологическая сущность понятия «духовные*

технологии», их место и значение в системе информационной безопасности. В ходе исследования определены теоретико-принципиальные основы формирования духовного иммунитета у молодёжи, создания механизмов духовной защиты против информационных угроз и развития информационной культуры на основе национальных ценностей. В результате предложена многоэтапная концептуальная модель духовных технологий, направленных на обеспечение информационной безопасности молодёжи, которая предполагает интегрированную деятельность семьи, образовательных учреждений, государства и институтов общества.

Ключевые слова *Духовные технологии, информационная безопасность, молодёжь, концептуальная модель, теоретические основы, духовная безопасность, духовный иммунитет, информационные угрозы, национальные ценности, информационная культура, духовное воспитание, философско-методологический подход, духовные алгоритмы, виртуальный диалог, просветительская борьба, информационно-психологическая безопасность, духовное совершенство*

Kirish

Zamonaviy globallashuv sharoitida axborot jamiyatining shiddatli rivojlanishi yoshlar ongiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining nazoratsiz ko‘payishi, turli mafkuraviy yo‘nalishlardagi kontentning erkin tarqalishi va milliy qadriyatlarga zid g‘oyalarning kuchayishi yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga jiddiy xavf solmoqda.

Bugungi kunda Internet va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarga yetib kelayotgan noqonuniy, axloqsiz va zararli ma’lumotlar (zo‘ravonlik, yomonlik, irqiy, diniy va millatlararo nizolarni qo‘zg‘atuvchi kontent) yosh avlodning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilish nafaqat texnik xavfsizlik masalasi, balki ma’naviy xavfsizlikning strategik yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim (Qurbonov, 2020).

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab rivojlangan davlatlar axborot tahdidlariga qarshi kurashda uch bosqichli modelni ishlab chiqqan: birinchi bosqich – axborotdan himoya, ikkinchisi – axborotga nisbatan immunitet, uchinchisi – ijobiy axborotni ishlab chiqish va tarqatish. Ushbu modelni amalga oshirishda ma’naviy texnologiyalar endilikda faqat targ‘ibot emas, balki axborot urushida g‘alaba keltiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim (Radjabov, 2025).

Falsafa endi nazariy tafakkur emas, balki axborot xavfsizligining aksiologik va metodologik tamal toshi bo‘lib xizmat qilmoqda. Axborot xavfsizligi – bu texnik muammolarni hal qilishdan ko‘ra, ijtimoiy ong va qadriyatlar himoyasidir, ma’naviy tarbiya esa aynan shu himoya vositasi bo‘lishi kerak. Shu bois, yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modelini ishlab chiqish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yoshlar siyosati, ma’naviyat va ma’rifat sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, globallashuv sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modelini ishlab chiqish hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan:

Falsafiy-tahliliy metod: Ma'naviy texnologiyalar tushunchasining falsafiy-metodologik mohiyati, ularning axborot xavfsizligi tizimidagi o'rni va ahamiyati falsafiy-nazariy asoslarda tahlil qilingan. Ma'naviy xavfsizlik tushunchasi yoshlarda mustaqil fikrlash, to'g'ri axborotni ajrata olish va o'zini-o'zi himoya qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni sifatida o'rganilgan.

Aksiologik (qadriyatshunoslik) yondashuv: Yoshlar ongida milliy qadriyatlarning o'rni, ularning axborot tahdidlariga qarshi immunitet shakllantirishdagi roli va globallashuv sharoitida qadriyatlar muvozanatini saqlash masalalari aksiologik nuqtai nazardan o'rganilgan.

Tizimli yondashuv: Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy texnologiyalarning ko'p bosqichli konseptual modeli tizimli ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu model oila, ta'lim muassasalari, davlat va jamiyat institutlarining integratsiyalashgan faoliyatini nazarda tutadi.

Nazariy modellashtirish: Yoshlarda ma'naviy immunitet shakllantirish, axborot tahdidlariga qarshi ma'naviy himoya mexanizmlarini yaratish va milliy qadriyatlar asosida axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-printsiplari belgilab berilgan va ularga asoslangan konseptual model ishlab chiqilgan.

Ilmiy nazariyalarni umumlashtirish: Axborot xavfsizligi va ma'naviy tarbiya sohasidagi mavjud ilmiy qarashlar, xalqaro tajriba va uch bosqichli model (axborotdan himoya, axborotga nisbatan immunitet, ijobiy axborotni ishlab chiqish va tarqatish) sintez qilingan.

Axborot-psixologik tahlil: Yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish, raqamli madaniyat va axborotdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish: Raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari va ma'naviyat hamda madaniyat bo'yicha virtual kutubxonalar yaratish, sun'iy intellekt va raqamli hikoyalar orqali interaktiv ta'lim kontentini ishlab chiqish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari

«Ma'naviy texnologiya» tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini tahlil qilsak, ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «texnologiya» tushunchasi dastlab ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq holda qo'llanilgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida mazkur kategoriya ijtimoiy hayotning turli sohalariga keng tatbiq etila boshladi. Natijada «ijtimoiy texnologiya», «siyosiy texnologiya», «pedagogik texnologiya», «axborot texnologiyasi», «innovatsion texnologiya» kabi tushunchalar shakllandi.

Biroq tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, «ma'naviy texnologiya» kategoriyasi hozirgacha mustaqil ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida to'liq nazariy asoslanmagan. Mavjud tadqiqotlarda mazkur tushuncha ko'pincha ma'naviy tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, targ'ibot, mafkuraviy profilaktika yoki madaniy tadbirlar bilan bir xil ma'noda ishlatiladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuv ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki har qanday texnologiya muayyan tizim, algoritm va takrorlanuvchi natijaga ega bo'ladi. Agar ma'lum faoliyatning natijasi tasodifiy omillarga emas, balki aniq rejalashtirilgan mexanizmga asoslansa, uni texnologiya deb baholash mumkin.

Shu nuqtai nazardan ma'naviy sohada amalga oshirilayotgan ko'plab ishlar hali to'liq texnologiya darajasiga ko'tarilmagan. Ular ko'proq ma'rifiy tadbirlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ma'ruza o'tkazish, davra suhbati tashkil etish yoki targ'ibot tadbirini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning o'zi texnologiya hisoblanmaydi. Chunki mazkur tadbirlarning maqsadi, ta'sir mexanizmi, natijani baholash mezonlari va takrorlanuvchi samarasi yagona tizimga birlashtirilmagan.

Texnologiya tushunchasining asosiy belgisi uning natijaga yo‘naltirilganligi, takrorlanuvchanligi va boshqariladigan jarayon ekanligidadir. Shu sababli ma’naviy texnologiya ham ana shu xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim (Jabborova, 2024).

Bizning fikrimizcha, ma’naviy texnologiya insonga muayyan g‘oyani singdirish vositasi emas, balki uning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma’naviy barqarorligini mustahkamlash va axborot muhitida ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ta’sir tizimidir.

Ko‘p hollarda texnologiya deganda texnik vositalar tushuniladi. Vaholanki, zamonaviy ijtimoiy falsafada texnologiya faqat texnika bilan emas, balki inson faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslangan usuli bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan ma’naviy texnologiya insonning ma’naviy rivojlanish jarayonini tasodifiy holatdan boshqariladigan ijtimoiy tizimga aylantiradi.

Bizning nazarimizda, ma’naviy texnologiyaning markazida axborot emas, inson turadi.

Axborot – ta’sir vositasi. Inson – maqsad. Ma’naviyat – jarayon. Barqarorlik esa natija hisoblanadi. Shuning uchun mazkur tadqiqotda ma’naviy texnologiyayb quyidagi mualliflik ta’rifi asosida talqin qilindi (G‘avsitdinova, 2025).

Ma’naviy texnologiya - shaxs va jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirish, axborot va g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan ichki immunitetni rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashga asoslangan ijtimoiy xulq-atvorni qaror toptirishga qaratilgan, aniq maqsad, ilmiy asos, sub’ektlar, ob’ektlar, ta’sir mexanizmi, baholash mezonlari va kutiladigan natijaga ega bo‘lgan takror qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy texnologiyadir.

Mazkur ta’rifning muhim xususiyati shundaki, unda ma’naviy texnologiya faqat tarbiyaviy jarayon sifatida emas, balki natijasi baholanadigan va qayta qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Bizning fikrimizcha, aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiliklaridan birini tashkil etadi.

Ma’naviy texnologiyaning asosiy belgilariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ma’naviy texnologiya quyidagi asosiy belgilarga ega bo‘ladi degan xulosaga kelish mumkin:

- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- ilmiy asoslanganlik;
- tizimlilik;
- bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- sub’ektlar o‘rtasidagi hamkorlik;
- natijaning baholanishi;
- qayta qo‘llash imkoniyati;
- raqamli muhitga moslashuvchanlik;
- uzluksiz rivojlanish xususiyati.

Bizning fikrimizcha, aynan mazkur belgilar ma’naviy texnologiyani oddiy ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan farqlaydi.

Tahlillarimiz natijasida ma’naviy texnologiyaning strategik maqsadini quyidagicha ifodaladik: Shaxs va jamiyatda axborot muhiti sharoitida mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barqaror, ijtimoiy mas’uliyatli va g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan barqaror immunitetga ega insonni shakllantirish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun texnologiya faqat yoshlarga emas, balki jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlariga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bu yerda tadqiqotning yana bir muhim konseptual jihati namoyon bo‘ladi.

Aksariyat ilmiy ishlar yoshlarni tarbiya ob’ekti sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha esa, yoshlarning ma’naviy muhiti kattalarning ma’naviy muhitidan ajralgan holda shakllanmaydi. Agar ota-ona, o‘qituvchi, rahbar yoki jamoatchilik vakillari o‘zlari axborot madaniyatiga, ma’naviy barqarorlikka va shaxsiy mas’uliyatga ega bo‘lmasalar, yoshlarda mazkur sifatlarni shakllantirish ancha murakkablashadi.

Shu munosabat bilan ushbu dissertatsiyamizda ma’naviy texnologiyalarning ob’ekti sifatida butun jamiyat qaraladi.

Olib borilgan tahlillarimiz «ma'naviy texnologiya» tushunchasini an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlar doirasida emas, balki mustaqil ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur texnologiyaning asosiy vazifasi insonga tayyor g'oyalarni singdirish emas, balki unda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan mazkur dissertatsiyada taklif etilgan mualliflik ta'rifi va yondashuv keyingi bo'limlarda ishlab chiqiladigan integrativ ma'naviy texnologiyalarning konseptual modeli quyidagilardan iborat bo'ladi.

Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy texnologiyalarning konseptual modeliga kelsak, tadqiqotimizning avvalgi bo'limlarida axborot xavfsizligiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar hamda «ma'naviy texnologiya» tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni tahlil qilindi. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud ilmiy yondashuvlarda axborot xavfsizligini ta'minlashga oid nazariy qarashlar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning aksariyatida shaxs, oila, ta'lim, mahalla, davlat va raqamli muhitning o'zaro aloqasi yagona tizim sifatida qaralmagan.

Bizning fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta'minlashga doir mavjud yondashuvlarning asosiy kamchiligi ularning sohalar kesimida alohida rivojlanganligidadir. Masalan, pedagogika ta'lim tizimini, psixologiya shaxs ongini, siyosatshunoslik davlat siyosati mexanizmlarini, huquqshunoslik normativ-huquqiy asoslarni, axborot texnologiyalari esa texnik muhofaza masalalarini o'rganadi. Biroq mazkur sohalarning barchasini yagona ma'naviy mexanizm sifatida birlashtiruvchi konseptual model yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur dissertatsiyada yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning integrativ ma'naviy texnologiyalar modeli taklif etiladi. Ushbu model inson ma'naviyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi barcha asosiy ijtimoiy institutlarni yagona tizimga birlashtirishga asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, shaxsning ma'naviy barqarorligi tasodifan shakllanmaydi. U muayyan ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim, madaniyat va axborot muhitining o'zaro ta'siri natijasida qaror topadi. Shu sababli mazkur jarayonni biror-bir institutning vazifasi sifatida emas, balki ko'p sub'ektli ijtimoiy tizim sifatida baholash lozim.

Taklif etilayotgan konseptual model quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Birinchi daraja – asosiy ijtimoiy institutlar.

Mazkur darajada shaxs ma'naviyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlar joylashadi. Bular:

- oila;
- ta'lim muassasalari;
- mahalla;
- davlat va jamoat tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- raqamli platformalar;
- madaniyat va san'at muassasalari;
- diniy-ma'rifiy institutlar.

Bizning fikrimizcha, mazkur institutlar alohida faoliyat yuritganda ham muayyan natijaga erishishi mumkin. Biroq ularning integratsiyasi ta'minlanmagan sharoitda mazkur ta'sir tizimli xususiyat kasb etmaydi.

Ikkinchi daraja - ma'naviy rivojlanish mexanizmlari.

Mazkur bosqichda insonning ichki ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Ularga:

- milliy o'zlikni anglash;
- ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish;
- kitobxonlik madaniyati;
- axborot madaniyati;
- mediasavodxonlik;
- tanqidiy fikrlash;
- huquqiy madaniyat;
- fuqarolik mas'uliyati;
- ijtimoiy faollik;
- kabi omillar kiradi.

Bizning fikrimizcha, aynan mazkur bosqich tashqi ta'sir bilan shaxsiy qaror

qabul qilish o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Uchinchi daraja – shaxsning ichki transformatsiyasi. Ma’naviy texnologiyaning asosiy vazifasi insonga ma’lumot berish emas, balki uning ichki dunyosida barqaror o‘zgarish hosil qilishdan iborat. Shu munosabat bilan mazkur bosqichda quyidagi sifatlar shakllantiriladi:

- mustaqil fikrlash;
- axborotni tanqidiy tahlil qilish;
- shaxsiy mas’uliyat;
- ma’naviy barqarorlik;
- ijtimoiy pozitsiya;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

Bizning fikrimizcha, aynan ushbu bosqich ma’naviy texnologiyaning markaziy qismi hisoblanadi.

To‘rtinchi daraja – natija. Texnologiyaning yakuniy natijasi sifatida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- ma’naviy immunitet;
- axborot tahdidlariga nisbatan barqarorlik;
- ijtimoiy mas’uliyat;
- huquqiy ong;
- fuqarolik pozitsiyasi;
- axborot xavfsizligi;
- jamiyat barqarorligi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, axborot xavfsizligi mazkur modelda yakuniy maqsad emas, balki jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim natija sifatida qaraladi.

Natija sifatida tadqiqotimizning asosiy ilmiy yangiliklaridan biri sifatida quyidagi konseptual qoidani ilgari suriladi:

Axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy ob’ekti axborot emas, inson hisoblanadi. Shuning uchun axborotni nazorat qilish emas, insonning ma’naviy barqarorligini rivojlantirish davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim.

Bu yondashuv amalda qo‘llanilayotgan ko‘plab konsepsiyalardan farq qiladi. Chunki ularda asosiy e’tibor tashqi axborot oqimlariga qaratilgan bo‘lsa, mazkur tadqiqotda shaxsning ichki rivojlanishi markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Bizning fikrimizcha, aynan shu nuqta axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida yangi ijtimoiy-falsafiy paradigmaning asosini tashkil etadi.

Konseptual modelning amaliy ahamiyatiga kelsak, taklif etilayotgan model faqat nazariy ahamiyatga ega emas. U quyidagi sohalarda amaliyotga tatbiq qilinishi mumkin:

- davlatning ma’naviy-ma’rifiy siyosatida;
- ta’lim tizimida;
- yoshlarga oid davlat dasturlarida;
- mahalla instituti faoliyatida;
- mediasavodxonlik dasturlarini ishlab chiqishda;
- raqamli platformalar uchun milliy kontent strategiyasini yaratishda;
- ma’naviy xavfsizlik monitoringini tashkil etishda.

Bu esa tadqiqotimizning amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalari axborot xavfsizligini ta’minlash muammosini faqat texnik, huquqiy yoki pedagogik yondashuvlar doirasida hal etish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida mazkur vazifa integrativ ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab qiladi. Shu munosabat bilan dissertatsiyada taklif etilgan integrativ ma’naviy texnologiyalar modeli shaxsning ichki ma’naviy rivojlanishi, ijtimoiy institutlar hamkorligi va raqamli muhit imkoniyatlarini yagona tizimga birlashtirishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

Yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modelini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, ma’naviy xavfsizlik yoshlarda mustaqil fikrlash, to‘g‘ri axborotni ajrata olish va o‘zini-o‘zi himoya qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni sifatida belgilandi. Ma’naviy xavfsizlik yoshlar ongi va qalbini shunday darajada mustahkamlashni nazarda

tutadiki, ular ruhan sog'lom bo'lib, axborotni farq qila olish va o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy texnologiyalar endilikda faqat targ'ibot emas, balki axborot urushida g'alaba keltiruvchi strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Axborot xavfsizligi – bu texnik muammolarni hal qilishdan ko'ra, ijtimoiy ong va qadriyatlar himoyasidir, ma'naviy tarbiya esa aynan shu himoya vositasi bo'lishi kerak.

Uchinchidan, xalqaro tajribaga asoslangan uch bosqichli model (axborotdan himoya, axborotga nisbatan immunitet, ijobiy axborotni ishlab chiqish va tarqatish) yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida taklif etildi. Ushbu modelni amalga oshirishda "ma'naviyatli algoritmlar", "virtual dialog", "tug'ma emas, orttirilgan ong" va "ma'rifiy kurash" kabi prinsiplar asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi.

To'rtinchidan, yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda oila, ta'lim muassasalari, davlat va jamiyatning integratsiyalashgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Internet xavfsizligini tizimli ma'naviy tarbiya bilan integratsiya qilish zarur bo'lib, bunda oila, ta'lim muassasalari, jamiyat, ommaviy axborot vositalari va davlat institutlari ishtiroki ta'minlanishi lozim.

Beshinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ma'naviy tarbiyani samarali tashkil etishning muhim vositasidir. Raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari va ma'naviyat hamda madaniyat bo'yicha virtual kutubxonalar yaratish, sun'iy intellekt va raqamli hikoyalar orqali interaktiv ta'lim kontentini ishlab chiqish ma'naviy tarbiyani amaliyotga tatbiq etishning zamonaviy yo'llari sifatida taklif etildi.

Oltinchidan, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish, raqamli madaniyat qadriyatlarini rivojlantirish va axborotdan foydalanish madaniyatini o'rgatish axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Yoshlarni axborotlarni tanib olish, ularni tanqidiy baholash va foydali ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, Internetdan madaniyatli foydalanish qoidalariga o'rgatish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy texnologiyalarning nazariy asoslari va konseptual modelini ishlab chiqish nafaqat shaxs kamoloti, balki milliy xavfsizlik va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham hayotiy ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu muammoni yechishda ilmiy asoslangan yondashuvlar, davlat siyosati va jamiyatning faol ishtiroki zarur.

References:

1. G'avsitdinova, M. (2025). Yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi. *Modern Education and Development, 38*(5).
2. Jabborova, O. (2024). Zamonaviy ta'limda yoshlarning axborot xavfsizligi. *Ilmiy anjumanlar to'plami, 4*(43).
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020).
4. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlar to'g'risida"gi Qonuni. (2016).
5. Qurbonov, Sh. (2025, September 19). Yoshlar ongida axborot tahdidlarga qarshi an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy ifodasini shakllantirish. *YUZ.uz*.
6. Radjabov, U. (2025). Ma'naviy barkamol yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkori. *Ilmiy anjumanlar to'plami, 3*(55).